

AL-QARAWIYYIN IS THE OLDEST UNIVERSITY IN THE WORLD

Hurmuhammad Nurbayev

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-kurs tayanch doktoranti, Toshkent islom instituti “Hadis va islom tarixi fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Qaraviyyin universiteti faoliyat yuritib kelayotgan dunyodagi eng qadimgi universitet yoki doimiy faoliyat yurituvchi eng qadimgi oliy ta'lim muassasasidir. Bu universitet dastlab masjid sifatida o'z faoliyatini boshlagan. 1947-yilda al-Qaraviy davlat ta'lim tizimiga kiritildi va 1940-yillarda ayollar birinchi marta u yerga o'qishga qabul qilindi. 1963 yilda (hijriy 1382 yil) Marokash mustaqillikka erishgach, al-Qaraviyyin qirol farmoni bilan rasman maorif vazirligi nazorati ostidagi universitetga aylantirildi. U shu yilda Marokashning zamonaviy davlat universiteti tizimiga kiritilgan va ikki yildan so'ng rasman "Al Qaraviyyin universiteti" deb o'zgartirilgan.*

Universitetda 11 ta fakultet mavjud: islomshunoslik, gumanitar fanlar, huquq, tibbiyot fanlari, muhandislik, qishloq xo'jaligi, veterinariya, menejment va tijorat, arxitektura va axborot texnologiyalari.

Universitetda jami 25000 ga yaqin talaba tahsil oladi. Ularning 60 foizga yaqini ayollardir. Xalqaro talabalar talabalar jamoasining taxminan 7 foizini tashkil qiladi. U dunyodagi eng qadimgi oliy ta'lim muassasasi va tibbiyot sohasida ilmiy daraja bergan birinchi universitet hisoblanadi. Tarixchilar uni dunyodagi eng qadimgi universitet deb atashadi.

Abstract: *Qarawiyyin University is the world's oldest university in operation or the oldest higher education institution in continuous operation. This university first started its activity as a mosque. In 1947, al-Qarawi was incorporated into the public education system, and in the 1940s, women were first admitted to study there. After the independence of Morocco in 1963 (1382 AH), al-Qarawiyyin was officially turned into a university under the control of the Ministry of Education by royal decree. It was incorporated into Morocco's modern state university system in the same year and was officially renamed "Al Qarawiyyin University" two years later.*

The university has 11 faculties: Islamic studies, humanities, law, medical sciences, engineering, agriculture, veterinary medicine, management and commerce, architecture and information technology.

About 25,000 students study at the university. About 60 percent of them are women. International students make up about 7 percent of the student body. It is the oldest higher education institution in the world and the first university to award medical degrees. Historians call it the oldest university in the world.

Kalit soʻzlar: *Qaraviyyin; Marokash; Islomshunoslik; Fez; Fotima al-Fihriy; Idrisiylar; Andalusiya; Mariniylar; Qurtuba; Bagʻdod.*

Key words: *Qaraviyyin; Morocco; Islamic Studies; Fez; Fatima al-Fihri; the Idrisi people; Andalusia; Marini; Cortuba; Baghdad.*

KIRISH

Al-Qaraviyyin universitetida ta'lim islom diniy ilmlari va fiqhiga qaratilgan bo'lib, u klassik arab grammatikasi va molikiy huquqshunosligiga katta e'tibor beradi. Al-Qaraviyyin universitetida Marokash va G'arbiy Afrikadan kelgan talabalar tahsil olishadi. Ularning bir qismini Markaziy Osiyodan kelgan talabalar tashkil etadi. Hatto Molikiy mazhabini qabul qilgan ispan musulmonlari ham ushbu muassasaga tez-tez tashrif buyurishadi, ular asosan Al-Qaraviyyin universiteti va Marokashdagi islom ilmi shayxlarining diniy va ilmiy meros merosxo'rlari ekanligi bilan qiziqishadi.

ASOSIY QISM

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi birinchi oliy o'quv yurti Al-Qaraviyyin universiteti hisoblanadi. Bu muassasa Marokashning uzoq shimoli-sharqidagi Fez shahrida 859-yilda (hijriy 245-yil Ramazon oyining avvali) Fotima al-Fihriy ismli badavlat musulmon ayol tomonidan asos solingan va keyinchalik u musulmon tarixida yetakchi ma'naviy va ma'rifiy markazlaridan biriga aylangan. Idrisiylar podshohi Yahyo I va uning ayoli Fotima al-Fihriyya uni qurishga ixtiyoriy ravishda qatnashganligi va qurilish ishlari tugaguniga qadar ro'za tutganligi va u yerda Allohga shukronalik o'laroq namoz o'qiganligi haqida rivoyatlar bor.

Dastlab bu markazda matematika, grammatika, astronomiya kabi katta ahamiyatga ega bo'lgan turli fanlar o'qitilgan. Matematika, falsafa kabi muhim fanlar bo'yicha ko'plab olimlar bu universitetga jamlanganlar va uning o'sishiga hissa qo'shganlar. Keyinchalik yillar davomida bu markaz asta-sekin o'sib, butun islom olamidagi eng muhim universitetga aylangan.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki bu universitet dastlab masjid sifatida o'z faoliyatini boshlagan. Fotima al-Fihriyya bu masjidni qurish uchun o'zining bor budini ayamagan. Shahar ahli va uning hokimlari masjidni kengaytirish, qayta tiklash ishlarini olib borishda davomli bo'lishgan. Zenatiya amirlari Andalusiya Umaviylari yordamida masjidni yana 3000 kvadrat metr atrofida kengaytirishgan, ulardan keyin Murobitiylar yana bir kengayishni amalga oshirganlar.

Masjiddagi keng to'rtburchak minora Abdurahmon al-Nosirning ishchilari bo'lgan, Zenatiy amirlari universitetni kengaytirgan kundan boshlab hozirgacha mavjud. Bu minora G'arbiy arab mamlakatlaridagi eng qadimgi to'rtburchak minoradir.

Murobitiylar masjidga qo'shimchalar kiritdilar va ular arxitekturasini, bezaklari va qurilishida soddaligi bilan ajralib turadigan masjid shaklini o'zgartirdilar, lekin ular uning umumiy xususiyatlarini saqlab qoldilar. Gumbaz yasashda, ark qo'yishda,

Qur'on oyatlari va duolarni o'yib yozishda me'morlarning mahorati yaqqol aks etgan. Masjidda Murobitiylardan qolgan eng ko'zga ko'ringan narsa bu minbar bo'lib, u hozir ham mavjud. Murobitiylardan keyin Muvahhidlar Fez masjidini bugungi kungacha bezab turgan ulkan qandil bilan ziynatlaganlar.

Qaraviyyn masjidining o'n yettita eshigi va ikkita yon taraf binolari bor. Bu ikki bino masjid o'rtasida joylashgan hovlining ikki tarafidan birlashib turadi. Har bir binoda marmardan yasalgan tahoratxonalar mavjud.

Masjid zarur ob'ektlar bilan jihozlanish borasida mashhur bo'lgan. Chunki u ko'plab qandillar, quyosh va qum soatlari bilan bezatilgan. Shu bilan birgalikda, masjidda qozi uchun xona, keng mehrob, kitoblar va mus'haflar uchun javonlar tashkil etilgan. Umuman masjid me'moriy dizayni o'zida, Andalusiya me'moriy dizaynini aks ettiradi.

Masjid qurilgandan so'ng u yerda ulamolar ko'plab ilm halqalarini tashkil etishdi va ularning atrofiga ko'plab ilm toliblari to'planishdi. Shaharning turli hokimlarining masjidga bo'lgan katta qiziqishi tufayli Fez ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Qurtuba va Bag'doddagi mashhur ilmiy markazlar bilan raqobatlasha oladigan darajagacha yetdi.

Qaraviyyn masjidi Murobitiylar davrida masjid bosqichidan universitetning boshlang'ich bosqichiga o'tgan, o'shanda ko'plab olimlar masjidni o'z darslari uchun bosh qarorgoh sifatida qabul qilganlar. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Qaraviyyn masjidi Mariniylar davrida haqiqiy universitet bosqichiga o'tgan, o'shanda uning atrofida ko'plab maktablar qurilgan. Universitet o'quv kurslari va xazinalar bilan qo'llab-quvvatlangan. Marokashlik tarixchi Muhammad Al-Manuniyning fikricha, masjid o'quv muassasasi sifatida o'z vazifasini 1121 yildan boshlagan.

Al-Qaraviyyn universiteti talabalarining aksariyatini 13 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Al-Qaraviyyn universitetida o'qishga nomzod bo'lgan talabalar musulmon bo'lishdan tashqari o'rta maktab va universitet darajalari uchun arab tilini, huquqshunoslik bilimlarini (Fiqh fanini) yuqori darajada biladigan bo'lishlari hamda Qur'onni to'liq yod olishlari shart. 1947-yilda al-Qaraviy davlat ta'lim tizimiga kiritildi va 1940-yillarda ayollar birinchi marta u yerga o'qishga qabul qilindi. 1963 yilda (hijriy 1382 yil) Marokash mustaqillikka erishgach, al-Qaraviyyn qirol farmoni bilan rasman maorif vazirligi nazorati ostidagi universitetga aylantirildi. U shu yilda Marokashning zamonaviy davlat universiteti tizimiga kiritilgan va ikki yildan so'ng rasman "Al Qaraviyyn universiteti" deb o'zgartirilgan.

XX-asrda u yangi vaqtga hech qanday muammosiz moslashish uchun modernizatsiya jarayonidan o'tgan. 1963-yilga qadar Al-Qaraviyyn universiteti ta'lim nuqtai nazaridan har doim o'z ahamiyatiga ega bo'lsada, ko'plab yuksalishlar va pasayishlarni boshidan kechirgan. XX-asrning ikkinchi yarmiga kelib, Marokash

hukumati universitetni o'z nazoratiga olgan va bu o'z navbatida universitetning yuksalishiga sabab bo'lgan.

O'tmishda ko'plab olimlar, jumladan, G'arb olimlari ham universitetni bitirganlar. Masjid va unga qo'shilgan ilmiy universitet qariyb ming yil davomida intellektual, madaniy va diniy faoliyat markazi bo'lib qoldi. Milodiy 999 yildan 1003 yilgacha Rim papasi bo'lgan Silvestr II u yerda tahsil olgan, Yevropaga qaytganidan keyin arab raqamlarini joriy qilgani aytiladi.

Al-Qaraviyyinning binosiga kelsak, dastlab bu bino masjid bo'lgan. Binoning sodda, shuningdek, Andalus san'ati va Kufiy xattotligi uyg'unligining natijasi bo'lmish betakror tashqi ko'rinishi bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Universitet kutubxonasida Qur'oni Karim nusxalari va boshqa ko'plab tarixiy qo'lyozma va kitoblar talabalar erkin foydalanishi uchun jamlangan.

Bugungi kunda Al-Qaraviyyin universiteti Marokashda katta ahamiyatga ega akademik muassasa sifatida faoliyat yuritadi. Universitet hozirda matematika, kimyo, fizika kabi dunyoviy fanlarning tadqiqot markazi bo'lishi bilan birga, butun arab dunyosidagi oliy ta'limda katta tadqiqot markazi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirda u tabiiy fanlar bo'yicha dunyodagi eng yaxshi markazlardan biri hisoblanadi.

2015-yil 24-iyun kuni Al-Qaraviyn universitetini qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi va yana qarorda universitet qoshidagi muassasalar va unga qarashli bo'ladigan institutni ham qaytadan tashkil etish ko'rsatilgan edi. Qirol qo'l ostiga kiruvchi bu universitet "Vaqf va islom ishlari" vazirligidan "Oliy ta'lim, ilmiy izlanishlar va kadrlar tayyorlash" vazirligiga o'tkazildi. Universitet ixtisosligi diniy kadrlar tayyorlash, ilmiy bahslar qilish, imom-xatiblar malakasini oshirishga mo'ljallandi.

Universitet hozirda beshta fakultet va Al-Qaraviyn universitetiga qarashli bir guruh muassasalarni o'z ichiga oladi. Jumladan:

Qaraviyn masjidi

Qirol Muhammad VI qiroat instituti

Qirol Muhammad VI erkaklar va ayollar uchun diniy xodimlar tayyorlash instituti

Kasablankadagi islom tafakkuri va svilizatsiya instituti

Marokash tarixi bo'yicha qirollik instituti

Qur'on ta'limi madrasasidan tashkil topgan.

Bu institutlarning hammasi maxsus ruxsatlar asosida Qaraviyn universiteti tasarrufiga kirgizilgan.

Marokash va G'arbiy O'rtayer dengizi tarixida bir qancha taniqli faylasuflar, olimlar va siyosatchilar "Qaraviyyin" tashkil topganidan beri u yerda tahsil olgan yoki dars bergan. Jumladan:

Ibn Arabiy (1165–1240), mutasavvif faylasuf;

Ibn Xaldun (1332–1406), tarixchi va faylasuf;

Ahmad Muhammad al-Maqqariy (1632-1577) , tarixchi va ilohiyotchi;

Imom al-Bannoniy (1727–1780), faqih(musulmon huquqshunosi);

Ahmad ibn Idris (1760–1837), marokashlik soʻfiy olim;

Muhammad al-Kattani (1873–1909), yozuvchi va siyosiy yetakchi;

Muhammad Taqiuddin al-Hiloliy (1893–1987), tarjimon;

Fotima al-Kabbaj (1932–). Taʼkidlash joizki, qabul qilingan birinchi ayollardan biri. Keyinchalik u Marokash diniy bilimlar oliy kengashining yagona ayol aʼzosi boʻldi.

Qaraviyyin universiteti 1200 yildan ortiq faoliyat yuritib kelayotgan dunyodagi eng qadimgi universitet yoki doimiy faoliyat yurituvchi eng qadimgi oliy taʼlim muassasasidir. 30 gektardan ortiq maydonni egallaydi va turli binolar hamda inshootlarni oʻz ichiga oladi. Universitetda 11 ta fakultet mavjud: islomshunoslik, gumanitar fanlar, huquq, tibbiyot fanlari, muhandislik, qishloq xoʻjaligi, veterinariya, menejment va tijorat, arxitektura va axborot texnologiyalari.

Universitetda jami 25000 ga yaqin talaba tahsil oladi. Ularning 60 foizga yaqini ayollardir. Xalqaro talabalar talabalar jamoasining taxminan 7 foizini tashkil qiladi.

Al-Qaraviyyin universiteti juda obroʻli muassasa boʻlib, Afrikadagi eng yaxshi universitetlar qatoriga kiradi. U koʻplab taniqli bitiruvchilarni, jumladan, islom tarixidagi eng koʻzga koʻringan olimlarni yetishtirgan.

Universitet oʻzining goʻzal arxitekturasi bilan ham tanilgan va YuNESKOning Jahon merosi roʻyxatiga kiritilgan.

Al-Qaraviyyin universiteti nafaqat Marokash balki, butun musulmon olami uchun muhim bilim markazidir.